

MUSTAQILLIK YILLARIDA IMOM AT- TERMIZIYNING ASARLARINI CHOP ETISH MASALALARI

O'zMU Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi

*3-bosqich talabasi **Orzubek O'ralov***

e-mail: orzubekurolov06@gmail.com

tel: +99899-500-75-68

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Imom Termiziy asarlarining mustaqillik yillarida nashr etilishi va buyuk muhaddisning ilmiy dohosiga e'tibor berilish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, Iso Termiziyning asarlarining bugungi kun ilmiy hayotida tutgan o'rni ham keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *muhaddis, hadis, maqbara, hadisshunoslik, Islom sivilizatsiyasi*

ISSUES OF PUBLISHING THE WORKS OF IMAM AT-TERMIZI IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract. *The article examines the issues of publishing the works of Imam Termizi in the years of independence and pays attention to the scientific genius of the great hadith scholar. It also examines the place of the works of Isa Termizi in modern scientific life.*

Keywords: *hadith scholar, hadith, tomb, hadith studies, Islamic civilization*

ВОПРОСЫ ИЗДАНИЯ ТРУДОВ ИМАМА АТ-ТЕРМИЗИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы издания трудов имама Термизи в годы независимости и уделяется внимание научному гению великого хадисоведа. Также рассматривается место трудов Исы Термизи в современной научной жизни.*

Ключевые слова: *хадисовед, хадис, гробница, хадисоведение, исламская цивилизация*

Yurtimizda Imom Abu Iso Muhammad Termiziyning xotirasi va beqiyos ma'naviy merosiga e'tibor davlat darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimiz tashabbusi bilan u zotning xoki poyi mangu qo'nim topgan Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi qadamjoda maqbara bino qilindi. Shuningdek, Termiz shahrida ulkan masjid, madrasa va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi barpo etilib, unda muhaddis alloma va boshqa ulamolarning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha ilmiy faoliyat boshlab yuborildi. Allomaning asrlar davomida nafaqat olim-u fuzalolar, balki oddiy odamlar uchun dasturul amal bo'lib kelgan insof, adolat va insonparvarlikni targ'ib etuvchi merosi hozirgi murakkab davrimizning ko'plab muammolariga yechim topishda o'ziga xos asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 14 fevral kuni "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ayni haqiqatkim, mazkur qaror mamlakatimiz ma'naviy hayotidagi ulkan tarixiy voqealardan biri bo'ldi. Qarorda qayd etilganidek, islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas zaminimiz azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini xalqimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yoshlarimizni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash maqsadida mazkur markazni tashkil etish ko'zda tutildi. Qarorda markazning asosiy maqsad va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi¹.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan Imom Termiziy asarlari nashr etila boshladi². Davlatimiz rahbari boshchiligida Imom Termiziy maqbarasi zamonaviy talablar asosida obod qilish va katta ziyoratgohga aylantirish ishlari yurtdoshlarimizning mislsiz e'tiroflariga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi

¹ Уватов. У. Буюк юрт алломалари. Т. : 2023.

² Ат-Термизий. Шамоили Мухаммадия / Саййид Махмуд Тарозий Алихонтўра таржимаси. – Т.: «Меҳнат» нашриёти, 1991; Абу Исо Мухаммад Термизий. Аш-Шамоийил ан-Набавийя / Арабчадан У.Уватов таржимаси. – Тошкент: Чўлпон, 1993. -1126

<https://scientific-jl.com/>

fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida “Termizlik allomalar asarlarining qo‘lyozmalari katalogi” loyihasi doirasida katalog-kitob nashr qilindi. “Abu Iso Termiziy ilmiy merosini tadqiq qilish, asarlarini tarjima va nashr qilish” nomli loyiha doirasida “al-Jome’ as-Sunan” (Sunnatlar to‘plami), “Abu Iso Muhammad Termiziy asarlari ilmiy-izohli tarjimalarini tayyorlash va nashr qilish” loyihasi doirasida allomaning “Tasmiyatu as’hobi Rasululloh” (Rasululloh safdoshlari) nomli kitoblari nashr qilindi³.

Hadislarni tanqidiy o‘rganish bo‘yicha qisqa vaqt oralig‘ida olti to‘plamda uchragan bir qator maxsus terminlar guruhi vujudga keldi. Imom Termiziy bu sohada salmoqli ishni amalga oshirgani, u faqatgina hadislarni to‘plash bilangina cheklanib qolmasdan, hadislarning tahliliga ham alohida bo‘lim ajratgani ham bu sohada katta voqelik hisoblanadi. Imom Termiziy birinchilardan bo‘lib hadislarni sahih, hasan va zaif guruhlarga ajratgan olimdir. Vaqt o‘tishi bilan hadis ilmidagi terminlar taraqqiy etib bordi va bu sohada umumiy qabul qilingan shaklga keldi.

Imom Termiziyning yozgan asarlari orasida bizgacha yetib kelgan va nashr qilingan to‘rtta kitoblari borligi bizga ma’lum. Bular:

“Al-Jome’ as-Sunan (Sunnatlar to‘plami)”. Bu to‘plam Imom Termiziyning shoh asari hisoblanadi. Uning mazkur asaridan tanlangan hadislarning ikki jildi o‘zbek tilida ham nashr qilingan.

“Ash-Shamoyil an-Nabaviyya” “Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning go‘zal suratlari va siyratlari”. Bu kitob Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning tashqi ko‘rinishlari, kundalik odatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, “Shamoili Muhammadiya” nomi berilgan Sayyid Mahmud Taroziyning tarjima-sharhidan foydalanilgan holda o‘zbek tilida ham nashr etilgan⁴.

“Kitab al-ilal” (Illat-sabablar kitobi). Hadis ilmi va roviylar to‘g‘risidagi mazkur asarning ikkita – katta va kichik tahriri mavjud. Ular “Kitab al-Ilal al-Kabir”, “Kitob al-Ilal as-Sag‘ir” deb ataladi. Ayrim tadqiqotchilar “Kitab al-Ilal al-Kabir”ni mustaqil asar desalar, “Kitob al-Ilal as-Sag‘ir”ni muallifning “al-Jome’”

³ Abu Iso Muhammad Termiziy. Rasululloh safdoshlari. Tarjimonlar va nashrga tayyorlovchilar H.Aminov, M.Ismoilov, B.Abdullayev. Mas’ul muharrir O.Qoriyev. – T.: “Navro‘z”nashriyoti, 2017.

⁴ Уватов У. Икки буюк донишманд. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 6-39

<https://scientific-jl.com/>

asariga ilova – xotima qismi deydilar. “Kitob al-Ilal al-Kabir”ga Ibn Rajab al-Hanbaliy sharh bitgan. Tadqiqotchilar “Kitob al-Ilal al-Kabir” asarining ikkinchi nomi “al-Mufrad” bo‘lganini alohida qayd qiladilar. Yana ilmiy adabiyotlarda allomaning “Al Ilal fil-hadis” nomli asari borligi zikr qilinadi. Bizningcha, u mazkur “Kitob al-Ilal al-Kabir” asarining boshqa bir nomi bo‘lsa kerak⁵.

“Asmo as-Sahoba” (“Sahobalarning ismlari”). Mazkur asar ixchamgina risola ko‘rinishida bo‘lib, unda Imom Termiziyga nisbat beriladi. Bu haqda Ibn Hajar Asqaloniy “Tahzib at-Tazxib” asarida eslatib o‘tgan. Asarning bir qo‘lyozma nusxasi Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadi va uning asosida asar matni nashr qilingan⁶.

Ibn an-Nadim “Fehrist” asarida Imom Termiziyning “Tarix” nomli asari ham bo‘lganligini ham zikr qilgan⁷.

Ona Sharq hikmat imoratlariga poydevor qo‘ygan, ilm-fan tamadduniga tamal toshi qo‘ygan muqaddas zamin. O‘zbekistonimizda ana shu mo‘tabar zotlarning ilmu ijodlarini o‘rganish ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning birinchi va kechiktirib bo‘lmas vazifasi hisoblanadi.

Buyuk termiziylarga alla aytgan muqaddas makon – eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan Termizda kamol topgan buyuk ajdodlarimizning insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan xizmatlari umume’tirof etilgan tarixiy haqiqatdir. Zero, bu zaminning dunyo tanigan allomalari qoldirgan olamshumul ilmiy, ma’naviy va madaniy merosi nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida o‘rta asrlarda kechgan ilmiy-madaniy jarayonlarga, balki jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessansga jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsatgani isbot talab etilmaydigan ulug‘ haqiqatdir.

Ta’kidlash o‘rinliki, o‘rta asrlarda faoliyat yuritgan yurtimiz allomalarining ko‘pchiligi haqida biz hanuzgacha yetarli ma’lumotga ega emasmiz. Jumladan, termizlik allomalardan Iso Muhammad Termiziy (824-893), Hakim Termiziy

⁵ Абу Исо Термизий. Китобул илал. Тарж. Ж.Чўтматов. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2017. -90 б.;

⁶ Абу Исо Мухаммад Термизий. Сунани Термизий. Ал-Жоми’ ас-Саҳиҳ. И жилд / Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи: Мирзо Кенжабек. – Т.: Шарқ, 2010. – 463б

⁷ Holmurodov.R.I. va b. Birinchi Renessans allomalari.T.: Zamin Nashr, 2022. 206 b

<https://scientific-jl.com/>

(820-932), Abu Bakr Varroq Termiziy, Xoja Samandar Termiziy (1638-1740), Adib Sobir Termiziy kabi qator allomalarning ilmiy merosi hali-hanuz to'raligicha o'rganilib, xalqimizga taqdim etilmagan.

Hakim Termiziy qalamiga mansub bo'lgan yana bir asar "Valiylar hayot yo'li" deb ataladi. Muallifning aksariyat asarlari qatori bu ham arab tilidan o'zbek tiliga birinchi marta tarjima qilindi. Asarning ilmiy-izohli tarjimasi ko'rsatkichlar bilan nashr qilingan bo'lib, asar valiylarning darajalari, sifatlari va boshqa tegishli masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Unda inson o'zini takomillashtirishi, tuban hirs-tuyg'ularini jilovlab, o'z-o'zini poklashi zarurligi haqidagi fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, o'z fikrlarini hayotiy misollar keltirib quvvatlagan. Asar g'oyasi tasavvuf falsafasining asosiy tushunchasi bo'lgan komil insonni voyaga yetkazish vazifalarini tashkil qilishdan iborat⁸.

Zamondoshlari tomonidan axloq, tasavvuf, fiqhiy masalalarda yuborilgan savollarga javob shaklida asar yozish Hakim Termiziyning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Shu boisdan loyiha doirasida reja bo'yicha arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan navbatdagi asar "Rayydan yuborilgan maktubga javob" deb atalgan. Bu asarning ilmiy-izohli tarjimasi ham zarur ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan holda ilk bor o'zbek tilida nashr qilindi. Bu asar axloqiy jihatdan oliy poklikka erishish va natijada Haqni anglashda to'liq bilimga ega bo'lib, tub mohiyatini tushunadigan inson haqida so'z yuritadi. Olim shaxs ma'naviy hayotida muhim bo'lgan odobni qanchalik zarur ekanligini hayotiy misollar bilan qiyoslab, tushuntirib bergan.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda ulug' mutafakkirlar Imom Termiziy va Hakim Termiziyning merosini tadqiq qilishdek fayziyob tadoriklar boshlangani ko'zimizga quvonch, qalbimizga iftixor bag'ishlaydi. Allomalarning diniy-falsafiy asarlari arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotgani kelajak avlod uchun munosib tuhfa sanaladi⁹.

⁸ Уватов. У. Буюк юрт алломалари. Т. О'zbekiston: 2023.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi 15 fevral 2017 yil.

<https://scientific-jl.com/>

Ushbu tadqiqot ishlari davlatimiz rahbarining tarixiy farmonlari bilan ochilgan O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi, Islom sivilizatsiya markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi kabi muassasalar olimlarining navbatdagi tadqiqotlarida o'z aksini topadi.

Zero, “Yaxshilikning mukofoti yaxshilikdir” deyilgan purhikmat naqlning amaldagi isboti ilmsevar, kitobsevar elning jahon aro nufuzini oshirishga xizmat qilayotganida ko‘rinayotgani ayni haqiqatdir.